



Nodirjon OTAQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc
E-mail: nodirorient@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d D.Djafarova taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA KOLLOKVIAL VA SUBKOLLOKVIAL FRAZEOLGIK BIRLIKLAR NAZARIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar nazariyasining asosiy konseptual va metodologik masalalari yoritiladi. Tadqiqot doirasida frazeologik birliklarning og'zaki nutqdagi funksional roli, ularning ekspressiv-baholovchan salohiyati, stilistik qatlamlanish jarayonidagi o'rni hamda substandart birliklarning adabiy til me'yor bilan o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Kollokvial va subkollokvial frazeologizmlarning ijtimoiy-kommunikativ sharoitlarda shakllanishi, nutqiy ta'sirchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyati hamda pragmatik yuklamasi ochib beriladi. Shuningdek, mazkur birliklarni ajratish va tasniflash mezonlari, ularni o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy lingvistik yondashuvlar (funksional-stilistik, pragmatik, antropotsentrik) umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari frazeologiyaning substandart qatlamini tizimli o'rganish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: kollokvial, subkollokvial, frazeologizm, og'zaki nutq, stilistik qatlam, ekspressivlik, me'yor, baholovchanlik.

ТЕОРИЯ КОЛЛОКВИАЛЬНЫХ И СУБКЛЛОКВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы изучения коллоквиальных и субколлоквиальных фразеологических единиц в современной лингвистике. В центре внимания находится функциональная роль фразеологизмов в устной речи, их экспрессивно-оценочный потенциал, особенности стилистической стратификации, а также соотношение субстандартных единиц с нормами литературного языка. Анализируется процесс формирования коллоквиальных и субколлоквиальных фразеологических единиц в социально-коммуникативной среде, их прагматическая нагрузка и роль в усилении речевой выразительности. Обобщаются основные классификационные критерии и методологические подходы к изучению данных единиц, включая функционально-стилистический, прагматический и антропоцентрический подходы. Полученные результаты подтверждают необходимость системного исследования субстандартного фразеологического слоя языка.

Ключевые слова: коллоквиальный, субколлоквиальный, фразеологизм, устная речь, стилистика, экспрессивность, норма, оценочность.

THE THEORY OF COLLOQUIAL AND SUBCOLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN LINGUISTICS

Annotation

This article explores the theoretical foundations of the study of colloquial and subcolloquial phraseological units in modern linguistics. The research focuses on the functional role of phraseologisms in spoken discourse, their expressive and evaluative potential, processes of stylistic stratification, as well as the relationship between substandard units and the norms of the literary language. Particular attention is paid to the formation of colloquial and subcolloquial phraseological units within social and communicative contexts, their pragmatic load, and their role in enhancing expressive impact in speech. The paper also systematizes key classification criteria and methodological approaches applied to the analysis of these units, including functional-stylistic, pragmatic, and anthropocentric frameworks. The findings substantiate the necessity of a comprehensive and systematic investigation of the substandard phraseological layer of language.

Key words: colloquial, subcolloquial, phraseological unit, spoken discourse, stylistics, expressiveness, norm, evaluation.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda so'zlashuv nutqiga xos leksik va frazeologik birliklarni o'rganish antropotsentrik, pragmatik va lingvokulturologik paradigmalar doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar tilning jonli, norasmiy, ijtimoiy belgisi nutqiy amalga oshirishini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida qaralmoqda. Mazkur birliklar orqali til egalari baholash munosabati, emotsional holati, ijtimoiy yaqinligi va madaniy tafakkuri ifodalanadi.

Shu ma'noda, kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar nazariyasini tizimli ravishda o'rganish til tizimi va nutq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, shuningdek, frazeologiyaning dinamik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

Frazeologik birliklar tilning leksik-semantik tizimida nafaqat nominativ, balki pragmatik va stilistik yuklama tashuvchi tayyor birliklar sifatida qaraladi. Kollokvial (so'zlashuv) frazeologizmlar, odatda, og'zaki muloqotning tabiiy ritmi, vaziyatga bog'liqligi va subyektiv baholovchanligi bilan ajralib turadi. Subkollokvial qatlam esa so'zlashuvning yanada quyi registrida (norasmiy, kundalik, ko'pincha soddalashtirilgan shakllarda) namoyon bo'ladigan, ijtimoiy-guruhiy cheklolarga

ega bo'lishi mumkin bo'lgan birliklarni qamrab oladi. Bunday farqlashda me'yor kategoriyasi markazga chiqadi. Adabiy til me'yorlari bilan moslik darajasi frazeologik birlikning qaysi qatlamga mansubligini belgilashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik qo'shilma darajasi asosida (frazeologik chatishmalar, birikmalar, birliklar) tasniflar ekan, ularning nutqiy qo'llanishi va stilistik rangdorligi ham ko'p hollarda birlikning "tayyorlik" darajasi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [1].

Bu yondashuv kollokvial/subkollokvial muammosini bevosita nomlamasa-da, og'zaki nutqda kuchli ekspressivlik beradigan birliklar ko'pincha semantik jihatdan qotib qolgan shakllarda kelishini izohlashga metodologik tayanch bo'ladi. V.Vinogradov tasnifi doirasida kollokvial frazeologizmlarning ichki motivatsiyasi ko'pincha moslashgani uchun ular tez va ixcham kommunikativ effekt beradi. Subkollokvial qatlamda esa bu effekt yanada keskinroq, baholovchanlik esa kontekstga ko'proq bog'liq bo'lib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklarning barqarorlik darajasi hamda semantik yaxlitligi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishda Yu.M.

Skrebnev [2], V.A.Xomyakov [3], L. Kalve [4], J.P.Kolin [5], D.Fransua-Jeyger [6], F. Gade [7], A.Rey [8] kabi nufuzli tilshunos olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar frazeologik birliklarning til tizimidagi o'zni, ularning funksional-stilistik xususiyatlari, shuningdek, nutqdagi amaliy qo'llanilishi masalalarini ochib berishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Jahon tilshunosligida jonli og'zaki muloqot tilini o'rganishga bo'lgan barqaror ilmiy qiziqish, shuningdek, tillarda frazeologik birliklarning keng tarqalganligi mazkur til birliklarini tizimli va mufassal tadqiq etish zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa, subkollokvial frazeologik birliklarning struktur-tuzilish xususiyatlari, semantik mazmuni va pragmatik yuklamasini qiyosiy-chog'ishtirma aspektida tahlil qilish orqali ularning umumiy va milliy-tipologik o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Shu ma'noda, subkollokvial frazeologik birliklarning qiyosiy-chog'ishtirma tahlili mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligi va nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari xorijiy va milliy tilshunoslikda olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanadi. Tadqiqot doirasida zamonaviy tilshunoslikda kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar nazariyasining asosiy konseptual hamda metodologik masalalari kompleks tarzda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ishda foydalanilgan faktik materialni tanlash, saralash va tizimlashtirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilgan muhim omillardan biri sifatida zamonaviy lingvistikada kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklarni aniqlash, identifikatsiya qilish va differentsiatsiyalashga qaratilgan samarali metodlar va mezonlarning ishlab chiqilganligi alohida ta'kidlanadi.

Kollokvial frazeologiyani nazariy jihatdan belgilashda nutq registri hamda funksional-uslubiy taqsimlanish tushunchalari alohida ahamiyat kasb etadi [9]. Frazeologik birlikning kollokvialligi faqat uning lug'aviy tarkibiga bog'liq emas: u ko'pincha kommunikativ vaziyat (norasmiy muloqot), adresant-adresat munosabati (yaqinlik, tenglik), hamda nutqning maqsadi (ta'sir, baholash, kinoya, yumor) bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan A.V.Kunin frazeologizmlarni o'rganishda ularning funksional xususiyatlarini, jumladan uslubiy belgilarini ham ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi [10]. Kuninning yondashuvida frazeologik birliklar nutqda tayyor qolip sifatida ishlatilishi bilan birga, uslubiy belgiga ham ega, ayrim birliklar neytral maydonda ishlasa, ayrimlari so'zlashuv yoki substandartga yaqinlashadi. Bu fikrni kollokvial va subkollokvial qatlami ajratishda qo'llash mumkin, kollokvial birliklar ko'proq umumso'zlashuv doirasida, keng auditoriyada tushunarli bo'lsa, subkollokvial birliklar ijtimoiy yoki situativ jihatdan torroq qo'llanishda bo'lishi, ba'zan esa kommunikativ ichki guruh belgisi sifatida ishlashi ehtimoli kuchli.

Tahlil va natijalar. Kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar tushunchasi haqida aytadigan bo'lsak, kollokvial frazeologik birliklar, odatda, so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, umumxalq nutqida nisbatan keng tarqalgan, lekin adabiy me'yor bilan chegaralangan ekspressiv-baholovchi ma'noga ega birliklar hisoblanadi. Ular og'zaki muloqotda tabiiylik, ixchamlik va emotsional ta'sirchanlikni ta'minlaydi [12].

Subkollokvial frazeologik birliklar esa kollokvial qatlamning yanada pasaytirilgan, ijtimoiy yoki guruhiy belgilangan qismi bo'lib, jargon, argo, interjargon elementlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi [13]. Bu turdagi frazeologizmlar ko'pincha norasmiy muloqot, yoshlar nutqi, kasbiy yoki ijtimoiy guruhlarning kommunikatsiyasida faol qo'llaniladi.

Frazeologiya nazariyasida kollokviallik masalasi birinchi navbatda frazeologik birliklarning uslubiy markerlanishi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Klassik frazeologiyada asosiy e'tibor barqarorlik, idiomatiklik va qayta tiklanish xususiyatlariga qaratilgan bo'lsa [14], zamonaviy yondashuvlarda frazeologizmlarning nutqiy sharoitga moslashuvchanligi va pragmatik funksiyasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda [15].

Kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar adabiy frazeologiyadan farqli ravishda, yuqori darajada ekspressivlikka,

kuchli subyektiv baholashga, kontekstga bog'liqlikka, variantlilik va transformatsiyaga moyillikka ega bo'ladi [16].

Tilshunoslikda subkollokvial frazeologik birliklarni ajratishda quyidagi asosiy nazariy mezonlar qo'llaniladi: uslubiy mezon – birlikning so'zlashuv, norasmiy yoki pasaytirilgan nutqqa mansubligi; pragmatik mezon – kommunikativ maqsad, ta'sir ko'rsatish, ironiya, sarkazm yoki evfemizatsiya funksiyasi; ijtimoiy mezon – muayyan ijtimoiy guruh, avlod yoki kasbiy muhit bilan bog'liqlik; ekspressiv-baholovchi mezon – ma'no tarkibida emotsional-baholovchi komponentning ustunligi [17]. Ushbu mezonlar subkollokvial frazeologizmlarning til tizimidagi o'zini aniqlashda kompleks ravishda qo'llanilishi lozim.

Kollokvial va ayniqsa subkollokvial frazeologik birliklar nutqda quyidagi pragmatik vazifalarni bajaradi:
nutqni emotsional jihatdan kuchaytirish;
so'zlovchi munosabatini ochiq ifodalash;
muloqotda yaqinlik va norasmiylikni ta'minlash;
ijtimoiy identifikatsiyani belgilash [18].

Bu birliklar ko'pincha nutqiy tejamkorlik tamoyili asosida shakllanib, qisqa, lekin ma'no jihatdan juda yuklamali konstruksiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Fransuz, o'zbek va rus tillarida kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish tillarning tipologik xususiyatlari, madaniy kodlari va ijtimoiy kommunikatsiya modellari ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu tillarda umumiy tendensiyalar bilan bir qatorda milliy-madaniy o'ziga xosliklar ham yaqqol kuzatiladi [19].

Kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklarni farqlashda metodologik tayanchlardan biri - stilistik stratifikatsiya nazariyasi hisoblanadi. Til birliklari turli ijtimoiy-aloqaviy sharoitlarda turlicha faollashadi, shu sababli frazeologizmning qaysi qatlamga mansub ekanini aniqlashda faqat lug'at belgilari bilan cheklanib bo'lmaydi. I.V. Arnold uslubiyatga doir tadqiqotlarida ekspressivlik, emotsionallik va baholovchanlik kategoriyalarining matn va nutqdagi amal qilishini ko'rsatadi, ularning eng faol ko'rinishi esa ko'pincha so'zlashuv registrida kuzatilishini ta'kidlaydi [20]. Arnoldning nazariy qarashlari kollokvial frazeologizmlarni izohlashda muhim, frazeologizm ekspressiv bo'lgani sari u nutqning muayyan registriga tortiladi, ya'ni rasmiy-neytral uslubdan chekinib, og'zaki-norasmiy nutqqa yaqinlashadi. Subkollokvial qatlam esa bu jarayonning davomiy nuqtasi sifatida ko'riladi, baholovchanlik kuchayadi, nutqiy vaziyatga bog'liqlik ortadi, birliklarning ijtimoiy belgilanganligi (kim, qayerda, qaysi muhitda ishlatadi) kuchayadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalarini tizimli tadqiq etish jarayonida birliklarning uslubiy qatlami va nutqiy qo'llanishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Sh. Rahmatullayev o'zbek frazeologizmlarining ma'no tarkibi, variantlanish, sinonimiya va nutqdagi faolligi kabi jihatlarini yoritarkan, frazeologizmlarning ekspressiv-baholovchan imkoniyatlari ko'pincha so'zlashuv nutqida yorqinroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi [21]. Ushbu yondashuv kollokvial frazeologizmlarni ajratishda muhim. O'zbek og'zaki muloqotida tez-tez ishlatiladigan iboralar (masalan, kinoyali yoki yumorli birliklar) adabiy matnda ham uchrashi mumkin, biroq ularning tabiiy muhiti ko'pincha so'zlashuvdir. Shuningdek, subkollokvial birliklar masalasida ehtiyotkorlik zarur, ularni adabiy tilga zid deb to'liq inkor etish emas, balki til tizimida mavjud bo'lgan substandart resurs sifatida, pragmatik vazifasi va qo'llanish doirasini aniqlash ilmiy jihatdan to'g'riroq yondashuv bo'ladi.

Nazariy muhokamada alohida masala - me'yor va uzus munosabatidir. Kollokvial frazeologizmlar ko'pincha uzusda faol, lug'atlarda qayd etilgan va adabiy til me'yoriga zid bo'lmagan holda bo'ladi. Subkollokvial birliklar esa uzusda mavjud bo'lsa-da, ularning me'yoriy maqomi bahsli bo'lishi, ayrimlari lug'atlarda cheklangan belgi bilan (masalan, so'zlashuv, oddiy so'zlashuv, sodda til) berilishi mumkin. Bu o'rinda korpus yondashuvi va empirik kuzatuv muhim sanaladi, real nutqda uchrash chastotasi, kontekst tiplari, va kommunikativ vazifalar aniqlanmas ekan, frazeologizmi kollokvial yoki subkollokvial deb qat'iy belgilash qiyin. A. Rey korpus lingvistikasi doirasida kollokatsiya va

idiomatiklikning matndagi taqsimlanishini ko'rsatib, til birliklarini real qo'llanish asosida o'rganish zarurligini ilmiy asoslaydi [22]. A. Rey yondashuvi frazeologik birliklarni ham registr va uslub bo'yicha aniqroq tasniflashga yordam beradi, masalan, og'zaki nutq korpusida yuqori chastotali va barqaror birikmalar kollokvial qatlamning markazini ko'rsatishi, tor ijtimoiy vaziyatlarda uchraydigan, keng omma uchun kamroq xos bo'lgan birliklar esa subkollokvial zonaga yaqinlashishi mumkin. Demak, kollokvial/subkollokvial farqi yaxshi-yomon bahosi emas, balki qo'llanish doirasi va pragmatik vazifaga tayanuvchi ilmiy parametrdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot nuqtayi nazaridan kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklarni aniqlash uchun quyidagi mezonlar samarali, registr (norasmiy og'zaki muloqotga xoslik darajasi), ekspressivlik va baholovchanlik intensivligi, ijtimoiy cheklanganlik (guruhiy yoki situativ), me'yoriy maqom

(lug'atlarda belgilanishi, adabiy nutqqa kirib borish darajasi), korpusda uchrash chastotasi va tipik kontekstlar. Ushbu mezonlar bir-birini to'ldiradi, faqat bitta parametrga tayangan tasnif ko'pincha subyektiv bo'lib qoladi. Kollokvial frazeologizmlarni o'rganish, ayniqsa, zamonaviy nutq madaniyati, muloqot pragmatikasi va funksional uslubiyat kesishmasida dolzarbdir. Subkollokvial qatlam esa tilning dinamikasi, ijtimoiy variativlik va og'zaki diskursning real mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy material beradi.

Kollokvial va subkollokvial frazeologik birliklar nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda frazeologiyaning dinamik, pragmatik va ijtimoiy yo'nalishini ifodalovchi muhim ilmiy sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu birliklarni kompleks, qiyosiy va funksional tahlil qilish tilning jonli nutqiy tabiatini, uning ijtimoiy va madaniy shartlanganligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Calvet L.J. L'argot. Presses Universitaires de France, 1999. – 128 p.
2. Colin J.-P. Dictionnaire de l'argot français et de ses origines. P.: Larousse, 2001. – 908 p.
3. François-Geiger D. Dictionnaire de l'argot français. P.: Larousse, 2001. – P. 883.
4. Gadet F. Le français populaire. P.: Presses, 1997. – 128 p.
5. Gross G. Les expressions figées en français. Paris: Ophrys, 1996. – 161 p.
6. Otaqulov N.B. Kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: O'zMU Xabarları, 2025. – B. 356.
7. Rey A. La lexicographie française. – Paris: PUF, 2000. – P. 132–140.
8. Rey I.G. La phraseologie du français. – Toulouse: Presses, 2002. – 268 p.
9. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие. – Москва: Высшая школа, 1991. – С.140.
10. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Высшая школа, 1974. – С.340–364.
11. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва: Высшая школа, 1996. – 381 с.
12. Отакулов Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал фразеологизмларнинг лисоний хусусиятлари. – Тошкент: “Grandkondorprint”, 2024. – 128 б.
13. Отакулов Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал фразеологик birliklar tadqiqiga doir. // УрДУ, Илм сарчашмалари, 2022. 2 сон. – Б.140.
14. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 464 б.
15. Скрбнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику. – Саратов: Изд-во Саратовск. ун-та, 1985. – 210 с.
16. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурный аспекты. Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
17. Хомяков В.А. Введение в изучение сленга – основного компонента английского просторечия. – Вологда, 1971. – 104 с.